

## Muqaddas xotira

Joriy yining 30-yanvar kuni mamlakatimizning birinchi Prezidenting tug'ilgan kuni munosabati bilan "Yer resurslarini boshqarish" fakultetlarining guruh murabbiylari guruhi talaba-yoshlari hamda fakultet yoshlar ittifoqi faollari Oqsaroy qarorgohida, sayohat uyushtirishdi. Ular Prezidentimiz haykali poyiga gul qo'yib, hurmat bajo keltirdi. Birinchi Prezidentimiz faoliyat yuritgan maskanni ziyorat qilish bizga o'zgacha g'urur, yorqin taassurot baxsh etdi, – deydi fakultetimiz faol tashabbuskor talaba-yoshlari. – Islom Karimovning xalqimiz, davlatimizning ertangi kuni, yorug' kelajagini qurishdek mashaqqatli faoliyati shu go'shada o'tgan.



Bu yerda Birinchi Prezidentimizning "O'zbekiston yoshlari hech kimdan kam emas va hech qachon kam bo'lmaydi" degan so'zlari jaranglab turganday, go'yo. Talaba-yoshlarimiz majmuuning tashkil etilish tarixi, bugungi faoliyati bilan tanishdi. "Yer resurslarini boshqarish" fakultetining professor-o'qituvchilar O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov muzeyiga sayohat uyushtirildi. Sayohat mobaynida professor-o'qituvchilarimiz suratlardagi lavxalarni tomosha qilishdi. Monumentlarning har bir qismi e'tibor bilan yasalganligidan xuddi ular bilan yonma-yon turgandek cheksiz xursand bo'ldilar.

**TIQXMMI matbuot xizmati**